

**GIDROMETEOROLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.27/30.12.2019.Gr.47.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAPIQOV BARKAMOL RUSTAMJON O‘G‘LI

**NORIN DARYOSI GIDROLOGIK REJIMINING
YIRIK GIDROTEXNIK INSHOOTLAR TA‘SIRIDA
O‘ZGARISHINI BAHOLASH**

11.00.03-Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Hidrokimyo

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Rapiqov Barkamol Rustamjon o'g'li

Norin daryosi gidrologik rejimining yirik gidrotexnik inshootlar
ta'sirida o'zgarishini baholash.....3

Рапиков Баркамол Рустамжон угли

Оценка изменения гидрологического режима реки Нарын под влиянием
крупных гидротехнических сооружений.....21

Rapikov Barkamol Rustamjon ugli

Assessment of changes in the hydrological regime of the Naryn river under
the influence of large hydraulic structures.....39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works43

**GIDROMETEOROLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.27/30.12.2019.Gr.47.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAPIQOV BARKAMOL RUSTAMJON O‘G‘LI

**NORIN DARYOSI GIDROLOGIK REJIMINING
YIRIK GIDROTEXNIK INSHOOTLAR TA‘SIRIDA
O‘ZGARISHINI BAHOLASH**

11.00.03-Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Hidrokimyo

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Gr228 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nigmi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xikmatov Fazliddin

geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Chembarisov Elmir Ismoilovich

geografiya fanlari doktori, professor

Rafiqov Vaxob Asomovich

geografiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.27/30.12.2019.Gr.47.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "7" noyabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent sh., Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi, 72. Tel.: (+998) 71 2358512, faks: (+998) 71 2371319, E-mail: info@nigmi.uz).

Dissertatsiya bilan Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot institutining Ilmiy-texnikaviy kutubxonasida tanishish mumkin (№ 220 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100052, Toshkent sh., Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi, 72. Tel.: (+998) 71 2358512, faks: (+998) 71 2371319, E-mail: info@nigmi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "21" oktabr kuni tarqatildi.

(2023 yil "21" oktabr dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).



B.M.Xolmatjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.E.Nishonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., katta ilmiy xodim

X.T.Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda, bugungi kunda kechayotgan iqlim ilishi jarayoni natijasida suv resurslari taqchilligi yildan-yilga sezilarli bo'lib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, arid mintaqalarda jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu borada BMTning Butunjahon ma'ruzasida "Suv resurslarining jamiyatga keltiradigan nafi, boshqa omillar bilan bir qatorda, suvni saqlash va yetkazib berishni ta'minlaydigan ... infratuzilmaga ham bog'liq. Mamlakatlarda ana shunday gidrologik infratuzilmalarning yo'qligi ularning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi"¹, deb ta'kidlangan. Bu holat daryolar oqimining gidrotexnik inshootlar yordamida boshqarish va uning oqibatida mintaqalarda kechadigan gidrologik jarayonlarda kelib chiqadigan o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

Dunyoda, ayniqsa, arid mintaqalarda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish, shu maqsadda suv resurslarini gidrotexnik inshootlar, jumladan, suv omborlari yordamida milliy va transchegaraviy miqyosda boshqarishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, transchegaraviy daryolar gidrologik rejimining yirik gidrotexnik inshootlar ta'sirida o'zgarishini baholash, bunday sharoitda ularning suv resurslaridan mamlakatlararo samarali foydalanishning qo'shimcha imkoniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar ham keng miqyosda olib borilmoqda. Mazkur yo'nalishlardagi tadqiqotlarning natijalari transchegaraviy daryolar suv resurslaridan hamkorlikda foydalanish masalalarining maqbul yechimiga erishishda va mamlakatlar iqtisodiyotining suvdan foydalanuvchi tarmoqlarida suv taqchilligi muammosini yumshatishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda transchegaraviy daryolar suv resurslaridan suv iste'molchilari hisoblangan iqtisodiyot tarmoqlarida yanada samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda va bu borada muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish"² muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu borada O'zbekiston va unga tutash hududlardagi transchegaraviy daryolar gidrologik rejimining yirik gidrotexnik inshootlar, jumladan, suv omborlari ta'sirida o'zgarishini miqdoriy baholash va, shu bilan birga, ular suv resurslaridan mamlakatlararo hamkorlikda yanada samarali foydalanishni tashkil etish masalalariga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son, 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini

¹ Всемирный доклад Организации Объединённых Наций о состоянии водных ресурсов, 2021 год. Ценность воды. www.unesco.org/water/wwap.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://Lex.uz>.

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari hamda 2023-yil 1-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-107-son Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Daryolar gidrologik rejimining yirik gidrotexnik inshootlar, jumladan, suv omborlari ta'sirida o'zgarishini baholash masalalariga qaratilgan tadqiqotlar G.Hutchinson, G.Harbeck, R.Jaakson, R.Martin, J.Willis, H.Varlet, N.Thomas kabi xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu masalalar bilan sobiq Ittifoq va MDH mamlakatlari olimlaridan V.G.Glushkov, G.I.Shamov, A.V.Karaushev, A.B.Avakyan, V.M.Shirokov, S.L.Vendrov, B.B.Bogoslovskiy, I.A.Shiklomanov, Y.M.Matarzin, V.A.Sharapov, K.K.Edelshteyn kabilar shug'ullanganlar. Ularning tadqiqotlari daryolar gidrologik rejimiga GESlar to'g'onlari, suv omborlari, suv taqsimlash inshootlari va kanallarning ta'sirini tadqiq etishga qaratilgan.

O'zbekistonda daryolar gidrologik rejimining yirik gidrotexnik inshootlar, shu jumladan, suv omborlari ta'sirida o'zgarishini baholash bilan bog'liq ilk tadqiqotlar V.L.Shul'ts, O.P.Sheglova, F.E.Rubinova, Y.N.Ivanov, A.M.Nikitin, A.R.Rasulov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Bugungi kunda mazkur masalaga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida N.Y.Gorelkin, Y.M.Vidineeva, Z.S.Sirliboyeva, D.P.Aytbayev, E.I.Chembarisov, F.Xikmatov, F.Y.Artikova, B.Y.Adenbayev, G'X.Yunusov, F.A.Gapparov, D.M.Turg'unov, M.R.Ikromova kabilarning ishlari alohida ajralib turadi.

Biroq, yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarida To'xtag'ul suv omborining Sirdaryo va Norin daryolari gidrologik rejimiga ta'siri masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilmagan. Mazkur dissertatsiya ishi Norin daryosi gidrologik rejimining yirik gidrotexnik inshootlar ta'sirida o'zgarishini baholash hamda uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalarini tadqiq etishga bag'ishlanganligi bilan avvalgi tadqiqotlardan ajralib turadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F5-13 – "Iqlim o'zgarishi sharoitida O'zbekiston va unga tutash hududlardagi daryolar gidrologik rejimi va suv resurslarining shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish" (2017-2020 yy.) mavzuidagi fundamental, Uzb-Ind-2021-89 – "O'zbekiston va Hindistonning qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil daryolari havzalarida suv taqchilligi hamda qurg'oqchilikka to'g'onlar va iqlim o'zgarishi ta'sirini baholash" (2021-2023 yy.) va FZ-2020110111 – "O'zbekistonda iqlim o'zgarishi, qayta tiklanadigan energiya resurslari va aholi salomatligi" (O'zbekiston-Germaniya, 2023-2025 yy.)

mavzularidagi qo‘shma loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Norin daryosi gidrologik rejimining o‘zgarishiga gidrotexnik inshootlar, xususan, To‘xtag‘ul suv omborining ta‘sirini baholash va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Norin daryosi havzasi tabiiy sharoitini oqim hosil bo‘lishi nuqtayi nazaridan tadqiq etish va hududning gidrometeorologik o‘rganilganligini baholash;

Norin daryosi havzasidagi gidrotexnik inshootlarning asosiy gidrologik ko‘rsatkichlarini va ularning Norin daryosi gidrologik rejimiga ta‘sirini aniqlash;

Norin daryosi oqimining yillararo tebranishi va o‘zgaruvchanligini tabiiy suv rejimi hamda To‘xtag‘ul suv omborini irrigatsiya va energetik rejimlarda ekspluatatsiya qilish sharoitlari uchun statistik baholash;

Norin daryosi oqimining To‘xtag‘ul suv ombori ta‘sirida yil davomida oylar va mavsumlar bo‘yicha taqsimlanishidagi o‘zgarishlarni miqdoriy baholash;

To‘xtag‘ul suv omborini energetik maqsadlarda ekspluatatsiya qilish sharoitida Norin daryosi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Norin daryosi va uning o‘zanida barpo etilgan, O‘rta Osiyodagi eng yirik gidrotexnik inshoot – To‘xtag‘ul suv ombori hamda undan quyidagi GESlar kaskadi olingan.

Tadqiqotning predmetini Norin daryosi tabiiy gidrologik rejimining To‘xtag‘ul suv omborini irrigatsiya va gidroenergetika maqsadlarida ekspluatatsiya qilish sharoitlaridagi o‘zgarishlarini baholash hamda daryo suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada geografik umumlashtirish, geografik o‘xshashlik va taqqoslash, zamonaviy gidrologik hisoblashlar usullari qo‘llanilgan. Daryo oqimining yillararo tebranishi, o‘zgaruvchanligi hamda suv resurslarini turli hisob davrlari va mavsumlar uchun miqdoriy baholashda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, Norin daryosining mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan dala tadqiqotlarida suv-texnik izlanishlari usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Norin daryosi tabiiy gidrologik rejimining, xususan, daryo oqimining yillararo tebranishi va o‘zgaruvchanligining To‘xtag‘ul suv ombori ta‘siridagi o‘zgarishlari baholangan;

Norin daryosi vegetatsiya hamda novegetatsiya davrlari oqimi miqdorlarining To‘xtag‘ul suv omborining irrigatsiya va energetik rejimlarda ekspluatatsiya qilish sharoitlaridagi o‘zgarishlari aniqlangan;

suv ombori energetik rejimda ekspluatatsiya qilinganda Norin daryosi vegetatsiya davri oqimi miqdorining tabiiy suv rejimiga nisbatan 2,1 marta kamayganligi, aksincha, novegetatsiya davrida 2,8 marta ortganligi aniqlangan;

Norin daryosi oqimining suv ombori ta‘sirida yil fasllari – bahorgi (mart-may) va yozgi (iyun-avgust) taqsimlanishlarining miqdoriy o‘zgarishlari tabiiy suv rejimi davriga nisbatan baholangan;

Norin daryosi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini ta'minlash maqsadida havzadagi mavjud suv omborlarining suv sig'imini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Norin daryosi havzasidagi yirik gidrotexnik inshootlarning asosiy gidrologik ko'rsatkichlari hamda ularning gidrologik rejimiga ta'siri aniqlangan;

daryo oqimining suv ombori ta'sirida yil davomida oylar va mavsumlar bo'yicha taqsimlanishidagi o'zgarishlar absolyut hamda nisbiy qiymatlarda baholangan;

Norin daryosi yillik va mavsumiy oqimi miqdorlarining o'zgaruvchanligini baholash usullari, suv omborini ekspluatatsiya qilish sharoitlarini hisobga olgan holda, takomillashtirilgan;

To'xtag'ul suv omborini energetik rejimda ekspluatatsiya qilinishi sharoitida daryo yillik oqimi variatsiya koeffitsiyentining tabiiy va irrigatsiya rejimlari uchun hisoblangan qiymatlariga nisbatan kamayib ketganligi aniqlangan;

energetik rejimda To'xtag'ul suv ombori to'g'onidan quyi beyfga chiqariladigan suv miqdorining havo haroratiga bog'liqligi baholangan;

Norin daryosi vegetatsiya va novegetatsiya davrlari oqimining to'la energetik rejimga o'tkazilgan To'xtag'ul suv ombori ta'siridagi salbiy o'zgarishlarini bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlaq chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari va ularning tahlillari asosida olingan xulosalarning ishonchliligi, unda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligi (O'zgidromet) tizimida yagona usulda amalga oshirilgan standart gidrometeorologik kuzatish ma'lumotlaridan birlamchi manba sifatida foydalanilganligi, ularning O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hamda muallifning dala tadqiqotlari materiallari bilan to'ldirilganligi, shuningdek, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va umumlashtirishda umumiy qabul qilingan va hozirda Hidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti (GMITI), Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti (ISMITI) kabi tarmoq ilmiy tadqiqot muassasalarida sinovdan o'tgan usullarning qo'llanilganligi, tadqiqot natijalarining boshqa mualliflarning shu yo'nalishda olgan ma'lumotlari bilan mosligi va ularning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda olingan asosiy ilmiy xulosalardan, xususan, daryolar gidrologik rejimining gidrotexnik inshootlar ta'sirida o'zgarishini baholashning muallif tomonidan ishda qo'llanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlari va usullaridan kelajakda boshqa daryolar suv rejimi elementlarining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishini tadqiq etishda, umumiy kuzatish yillarini, gidrotexnik inshootlarni ekspluatatsiya qilish sharoitiga bog'liq holda, tegishli hisob davrlariga ajratish mezonlarini belgilashda, shuningdek, mazkur jarayonlar bilan bog'liq masalalarni hal etishda amalga oshiriladigan gidrologik hisoblashlar va prognozlash usullarini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda muallif tomonidan olingan

natijalar va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalardan, ularga erishishda qo'llanilgan hisoblash usullaridan daryolar gidrologik rejimining suv omborlari, daryolardan suv olish va suv taqsimlagich inshootlari ta'sirida o'zgarishini baholashga, suv omborlarini energetik maqsadlarda ekspluatatsiya qilish sharoitlarida ulardan quyida joylashgan hududlarda suv ta'minotini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqishga, ularning samaradorligini oshirishga, shuningdek, ishda qo'llanilgan uslubiy yondashuvlar va tadqiqot materiallarining respublika oliy ta'lim tizimining gidrologiya, gidrometeorologiya, ekologiya sohalariga tegishli yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarida maxsus fanlarni o'qitish sifatini yaxshilashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Norin daryosi gidrologik rejimining yirik gidrotexnik inshootlar ta'sirida o'zgarishini baholash va uning salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Norin daryosi va u quyiladigan Sirdaryo daryosi tabiiy gidrologik rejimi, xususan, daryolar oqimining yillararo tebranishi va o'zgaruvchanligining To'xtag'ul suv ombori ta'sirida o'zgarishlarini baholash natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligida "Quruqlikdagi er usti suvlari rejimi va resurslari haqida yillik ma'lumotlar", "Quruqlikdagi er usti suvlari rejimi va resurslari haqida ko'p yillik ma'lumotlar" hamda "Asosiy gidrologik ko'rsatkichlar" ma'lumotnomalarini nashrga tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligining 2023 yil 27 iyuldagi 01-15/1317-son ma'lumotnomasi). Natijada, Norin daryosi oqimi miqdorining yillararo o'zgaruvchanligi, yil davomida oylar va mavsumlar bo'yicha taqsimlanishini ifodalovchi parametrlarga aniqlik kiritish imkonini bergan;

Norin daryosi vegetatsiya hamda novegetatsiya davrlari oqimi miqdorlarining To'xtag'ul suv omborini irrigatsiya va energetik rejimlarda ekspluatatsiya qilish sharoitlaridagi o'zgarishlarining aniqlangan qiymatlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi "Kartografiya" Davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasida O'zbekiston Milliy Atlasining "Er usti suvlari" bo'limidagi "Daryolar oqimining yillik taqsimlanishi" ilovasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 26 apreldagi 08-02976-son ma'lumotnomasi). Natijada, To'xtag'ul suv ombori ta'sirida Norin daryosi oqimining yil davomida vegetatsiya va novegetatsiya davrlarida taqsimlanishini tezkor baholash imkoniyati yaratilgan;

To'xtag'ul suv omborini to'liq energetik rejimda ekspluatatsiya qilinishi sharoitida Norin daryosi vegetatsiya davri oqimi miqdorining tabiiy rejimga nisbatan 2,1 marta kamayishi, aksincha, novegetatsiya davrida 2,8 marta ortganligini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligida iqtisodiyotning suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchi tarmoqlariga rasmiy ma'lumotnomalar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish

va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligining 2023 yil 27 iyuldagi 01-15/1317-son ma'lumotnomasi). Natijada, suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchi iqtisodiyot tarmoqlariga taqdim etiladigan, aniq raqamlarda ifodalangan, tezkor gidrologik ma'lumotnomalar tayyorlashning qo'shimcha imkoniyatlari yaratilgan;

Norin daryosi oqimining yil fasllari – bahorgi (mart-may) va yozgi (iyun-avgust) taqsimlanishlarining tabiiy suv rejimi sharoitidagi hamda suv ombori ta'siridagi miqdoriy o'zgarishlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi "Kartografiya" Davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasida O'zbekiston Milliy Atlasining «Er usti suvlari» bo'limidan o'rin olgan "Bahorda daryolar oqimining taqsimlanishi (mart-may)" kartasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 26 apreldagi 08-02976-son ma'lumotnomasi). Natijada, Norin daryosining bahorgi to'linsuv davri (mart-may) oqimini tezkor miqdoriy baholashning qo'shimcha imkoniyatlari yaratilgan;

Norin daryosi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni ta'minlash maqsadida, havzadagi mavjud suv omborlari (Rezaksoy, Kengko'ldoy, Yozyovon, Karkidon, Jizzax, Sardoba va boshq.) ning aniqlangan gidrologik ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi "Kartografiya" Davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasida O'zbekiston Milliy Atlasining "Er usti suvlari" bo'limidagi "Suv omborlari: Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari" kartasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 26 apreldagi 08-02976-son ma'lumotnomasi). Natijada, Norin-Sirdaryo havzasidagi suv omborlaridan yanada samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejalariga qo'shimchalar va aniqlik kiritish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 17 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqot mavzuining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzuning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi qayd etilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi baholangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning amaliyotda joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi** bobi "**Norin daryosi havzasining tabiiy sharoiti va gidrometeorologik o'rganilganligi**" deb nomlangan. Dissertatsiyaning ushbu bobida Norin daryosi havzasining tabiiy sharoitiga, jumladan, geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi, orografiyasi, iqlim sharoiti, tuproq va o'simlik qoplaminig o'ziga xos xususiyatlariga tavsif berilgan. Shuningdek, mazkur bobning yakunida Norin daryosi havzasining gidrografik tarmoqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan, gidrometeorologik o'rganilganligi tahlil qilingan.

Tadqiqotda Norin daryosi havzasining tabiiy sharoiti va gidrologik xususiyatlari I.A.Ilin, D.M.Mamatkanov, O.A.Podrezov, V.A.Blagoobrazov, A.I.Voyeykov, L.K.Davidov, N.L.Korjenevskiy, V.L.Shults, O.P.Sheglova, M.N.Bolshakov, S.K.Alamanov, A.N.Dikix, R.D.Zabirov, A.R.Rasulov, B.A.Kamolov, A.S.Shyetinnikov, Z.S.Sirliboyeva, F.X.Xikmatov, V.Y.Chub, A.O.Podrezov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilganligi ta'kidlab o'tilgan. Dissertatsiyada Norin daryosi oqimining hosil bo'lishi, gidrologik rejimining shakllanishi masalalarini tadqiq etishda, yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlari natijalari fundamental asos sifatida xizmat qilganligi muallif tomonidan alohida qayd etilgan.

Havzaning iqlim sharoiti va uning o'ziga xos xususiyatlari shu hududda joylashgan meteorologik stansiyalar ma'lumotlari asosida yoritilgan. Norin daryosi havzasi G'arbiy Tyanshan tog' sistemasining ichkarisida joylashgan va qo'shni havzalardan baland tog' tizmalari bilan chegaralangan. Shu tufayli uning havzasiga nisbatan kam, yiliga taxminan 600-650 mm yog'in yog'adi. Yog'inlarning eng ko'p qismi (85-90 %) kuz-qish va bahor oylarida, yozda esa, aksincha, juda kam (10-15 %) yog'in yog'adi. Havzaning turli qismlarida yog'in miqdorlari bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqotda Norin daryosi havzasining tabiiy gidrografik tarmoqlari, jumladan, uning yuqori tog'li qismidan boshlanadigan yirik irmoqlari va havzadagi kichik daryolarga gidrografik tavsif berilgan, ularning asosiy gidrologik ko'rsatkichlari haqida muallif tomonidan to'ldirilgan ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).

Norin daryosi suv to'plash maydonining daryo uzunligi bo'yicha 9700 km² dan 52000 km² gacha ortib borishi, havza o'rtacha balandliklarining esa, aksincha, 3620 metrdan 2930 metrgacha kamayib borishi aniqlangan. Ushbu gidrologik ko'rsatkichlarga mos ravishda, daryoda suv sarfi 88,2 m³/s dan 409 m³/s gacha ko'payib boradi. Shuningdek, suvliligining kattaligi ($M=17,1$ l/s·km², $h=540$ mm)

bo'yicha, tog' muzliklaridan boshlanadigan Qumtor daryosining alohida ajralib turishi qayd etilgan.

1-jadval

Norin daryosining yirik irmoqlari va ularning asosiy gidrologik ko'rsatkichlari

T.r.	Daryo – kuzatish posti	F, 10 ³ km ²	H _{o'rt} , km	Q, m ³ /s	M, l/s·km ²	h, mm	C _v
1	Norin – Qaindi d.q.	9,7	3,62	88,2	9,1	287	0,13
2	Norin – Norin sh.	10,5	3,57	87,4	8,32	262	0,18
3	Norin – Ko'kjerti d.q.	14,9	3,39	106	7,11	224	0,16
4	Norin – Ko'kiyrim d.q.	34,6	2,99	203	5,87	185	0,17
5	Norin – Ko'ko'meren d.q.	45,2	2,96	304	6,72	212	0,12
6	Norin – Alekseevka d.q.	52,0	2,93	382	7,34	232	0,16
7	Norin – Uchqo'rg'on	58,4	3,27	409	7,0	221	0,10
8	Katta Norin – quyil.	5,71	3,72	47,2	8,27	261	0,16
9	Qumtor – Tyanshan MS	0,23	4,09	3,94	17,1	540	0,13
10	Kichik Norin – quyil.	3,87	3,50	42,8	11,1	350	0,15
11	Onarcha – yuqori	0,84	3,23	6,24	7,45	235	0,24
12	Onarcha – quyi	1,32	3,12	9,91	7,5	236	0,23
13	Otboshi – Ichki qamandi	1,50	3,50	17,7	11,8	372	0,18
14	Otboshi – Djangiztal d.q.	5,54	3,07	33,1	5,98	188	0,15
15	Olabug'a – Qo'shtobe d.q.	3,71	3,26	27,5	7,43	234	0,22

Izoh: F – suv to'plash maydoni; H_{o'rt} – havzaning o'rtacha balandligi; Q – o'rtacha ko'p yillik suv sarfi; M – oqim moduli; h – oqim qalinligi; C_v – o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti.

Dissertatsiya ishining “Norin daryosi havzasidagi gidrotexnik inshootlar va ularning daryo oqimiga ta'sirini baholash maqsadida hisob davrlarini belgilash” deb nomlangan ikkinchi bobida asosiy e'tibor, dastlab, Norin daryosi havzasidagi suv inshootlari va, xususan, To'xtag'ul suv omborining gidrologik tavsifiga qaratilgan. Shuningdek, Norin daryosining tabiiy suv rejimi va gidrotexnik inshootlar ta'sirida o'zgargan oqimi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Bobning yakunida, To'xtag'ul suv omborini ekspluatatsiya qilish sharoitlariga bog'liq holda, hisob davrlari ajratilgan.

Norin daryosi havzasidagi eng yirik suv inshooti – To'xtag'ul suv omboridir. Uning loyihada qayd etilgan umumiy suv sig'imi 19,5 km³, foydali hajmi esa 14 km³ ni tashkil etadi. Suv ombori Qirg'izistonning Ketmen-Tube vodiysida, Norin daryosining yuqori oqimida, Katta Norin va Kichik Norin daryolarining qo'shilish joyida barpo etilgan. Suv ombori Norin daryosi oqimini yillararo boshqarish, pirovard natijada, mintaqaning suv xo'jaligi va suv-energetika muammolarini hal etish maqsadida qurilgan.


Tadqiqotda Norin daryosi uzunligi bo'yicha joylashgan barcha suv omborlari va ulardan suv oladigan GES larning asosiy gidrologik ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar to'plangan va ular tahlil qilingan. Natijada, To'xtag'ul suv omborining Norin daryosi oqimini yillararo boshqarishda ahamiyatli ekanligi ko'rsatib berilgan (2-jadval).

Norin daryosida joylashgan suv omborlari va GESlarning
asosiy gidrologik ko'rsatkichlari

Suv omborlari	To'xtag'ul	Kurupsoy	Toshko'mir	Shamoldisoy	Uchqo'rg'on	
Foydalanishga topshirilgan yil	1974	1982	1988	1996	1961	
MDS balandligi, m	900	724	628	572	539	
To'g'on balandligi, m	215	113	75	41	31	
Suv sig'imi, 10^6 m^3	V_{um}	19500	370	144	40,8	52,5
	V_f	14000	35	16	5,47	20,9
Suv yuzasi maydoni, $F_o, \text{ km}^2$	284	11,7	7,8	2,4	4,0	
Chuqurligi, m	$h_{o'rt}$	68,7	31,6	18,5	17	13,1
	h_{max}	215	75	65	42	33,4
Umumiy quvvati, N, MVt	1200	800	450	240	180	

Izoh: MDS – me'yoriy dimlanish sathi; V_{um} – umumiy suv sig'imi; V_f – foydali suv sig'imi; $h_{o'rt}$ – o'rtacha chuqurlik; h_{max} – eng katta chuqurlik.

Tadqiqotda Norin daryosining tabiiy suv rejimi va gidrotexnik inshootlar ta'sirida o'zgargan oqimi rejimi tahlil qilingan. Ushbu suv rejimi holatlari uchun daryo oqimi miqdorining yillararo tebranishi hamda yillik oqim miqdorlarining yil davomida vegetatsiya (aprel-sentyabr) va novegetatsiya (oktyabr-mart) mavsumlari bo'yicha taqsimlanishi masalalari tadqiq etilgan (1-rasm).



1-rasm. Norin daryosi yillik, vegetatsiya va novegetatsiya davrlari oqimi miqdorlarining yillararo tebranishlari (Uchqo'rg'on gidroposti)

Dissertatsiyada belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, ko'p yillik (1930-2021 yy.) gidrologik ma'lumotlar tahlil qilingan. Natijada Norin daryosining Uchqo'rg'on gidrologik postidagi umumiy kuzatishlar, uning tabiiy suv rejimi

hamda To‘xtag‘ul suv omborini qurish yillari, uni irrigatsiya va gidroenergetika maqsadlarida ekspluatatsiya qilish sharoitlarini hisobga olgan holda, quyidagi 3 ta hisob davrlariga ajratilgan:

I hisob davri, Norin daryosi tabiiy gidrologik rejimga ega bo‘lgan davr, 1930-1971-yillar;

II hisob davri, To‘xtag‘ul suv ombori irrigatsiya rejimida ekspluatatsiya qilingan davr, 1972-1994-yillar;

III hisob davri, To‘xtag‘ul suv ombori energetik rejimga o‘ta boshlagan va bu rejim to‘liq ustuvor bo‘lgan davr, 1995-2021-yillar.

Dissertatsiyaning **3-bobi “Norin daryosi oqimining yillararo tebranishi va o‘zgaruvchanligiga To‘xtag‘ul suv omborining ta‘sirini baholash”** deb nomlanadi. Mazkur bobda, dastlab, daryolar oqimining yillararo tebranishi hamda o‘zgaruvchanligini tadqiq etishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan. So‘ng Norin daryosi oqimining yillararo tebranishi va o‘zgaruvchanligining statistik ko‘rsatkichlari, suv omborini ekspluatatsiya qilish sharoitlariga hisobga olgan holda ajratilgan hisob davrlari uchun aniqlangan. Bobning yakunida To‘xtag‘ul suv omborini energetik rejimda ekspluatatsiya qilish sharoitida, undan quyi byefga chiqariladigan suv sarflarining havo haroratiga bog‘liqligi hamda uning oqibatlari tahlil qilingan.

Tadqiqotda tabiiy suv rejimi sharoitida hamda suv omborini irrigatsiya va energetik rejimlarda ishlatish davrlarida Norin daryosi oqimining yillararo tebranishlari masalalarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilgan. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar Uchqo‘rg‘on gidrologik stansiyasida o‘lchangan suv sarflari ma‘lumotlari asosida amalga oshirilgan (1-rasm).

Norin daryosining tabiiy gidrologik rejimi, ya‘ni I hisob davri (1930-1971-yillar) daryoda o‘lchangan o‘rtacha yillik suv sarflarining eng kichik ($Q_{\min}=233 \text{ m}^3/\text{s}$, 1965-yil) hamda eng katta ($Q_{\max}=568 \text{ m}^3/\text{s}$, 1969-yil) miqdorlarini o‘z ichiga olgan. Irrigatsion rejim, ya‘ni II hisob davri (1972-1994-yillar)ning boshlanishida, aniqrog‘i, To‘xtag‘ul suv ombori ekspluatatsiyaga topshirilgan dastlabki bir necha yillar (1974-1980 yy.)da daryoda sezilarli darajada kamsuvli bo‘lgan. Buning sababi daryo oqimining asosiy qismi To‘xtag‘ul suv ombori foydasiz hajmini ($5,5 \text{ km}^3$) to‘ldirish uchun sarflanganligi bilan izohlangan. Suv ombori energetik rejimda ishlagan, ya‘ni III hisob davri (1995-2021-yillar)da Norin daryosi o‘rtacha yillik suv sarflarining yillararo tebranishi grafigi ancha silliqlashgan ko‘rinishga kelgan (1-rasm).

Tabiiy gidrologik rejimdan energetik rejimga o‘tish tomon suv sarflari o‘rtacha kvadratli chetlashishlarining qiymatlari (σ_Q)ning kichrayib borishi aniqlangan. Jumladan, tabiiy suv rejimida $\sigma_Q = 80 \text{ m}^3/\text{s}$, irrigatsion rejimda $\sigma_Q = 78 \text{ m}^3/\text{s}$ va energetik rejimda esa $\sigma_Q = 41,2 \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng bo‘lgan (3-jadval).

To‘xtag‘ul suv ombori irrigatsion rejimda ishlaganda, Norin daryosi oqimining o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti tabiiy suv rejimiga nisbatan ortgan va $C_v=0,24$ ga teng bo‘lgan. Suv ombori energetik rejimga o‘tishi bilan daryo oqimining yillararo o‘zgaruvchanligi sezilarli darajada kamaygan va variatsiya koeffitsiyentining qiymati $C_v=0,10$ ni tashkil etgan.

Turli hisob davrlaridagi suv sarflarining o'rtacha kvadratli chetlashishlari va tebranish amplitudalari

Hisob davrlari	O'rtacha ko'p yillik suv sarfi, \bar{Q} , m ³ /s	Suv sarflarining o'rtacha kvadratli chetlashishi, σ_Q , m ³ /s	Suv sarflarining ekstremal qiymatlari, m ³ /s		Suv sarflarining tebranish amplitudasi, ΔQ , m ³ /s
			Q _{max}	Q _{min}	
Tabiiy suv rejimi (1930-1971 yy.)	392	80,0	568	233	335
Irrigatsion rejim (1972-1994 yy.)	325	78,0	451	205	246
Energetik rejim (1995-2021 yy.)	404	41,2	493	322	171

Tadqiqotda suv ombori energetik rejimda ekspluatatsiya qilinganda, undan to'g'onning quyi beyfiga tashlanadigan suv sarflarining havo haroratiga bog'liqligi aniqlangan ($r=0,911\pm 0,008$) va uning salbiy oqibatlari tahlil qilingan.


Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Norin daryosi oqimining yil davomida taqsimlanishiga To'xtag'ul suv omborining ta'siri**" deb nomlangan. Ushbu bobda, dastlab, To'xtag'ul suv omborining Norin daryosi oqimining yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishiga ta'sirini baholash masalalari ko'rib chiqilgan. Shundan so'ng daryo oqimining yil davomida fasllar hamda vegetatsiya va novegetatsiya mavsumlari bo'yicha taqsimlanishiga To'xtag'ul suv omborining ta'siri tadqiqotlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Norin daryosi oqimining To'xtag'ul suv ombori ta'sirida yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishi xususiyatlarini o'rganishda, yuqorida qayd etilgan tabiiy gidrologik rejimli davr o'zgarishsiz qoldi va u I hisob davri (1930-1971-yillar) sifatida qabul qilingan. Norin daryosi gidrologik rejimining suv ombori ta'sirida o'zgargan davri esa quyidagi to'rtta hisob davrlariga bo'lingan: II hisob davri, irrigatsion rejim ustuvor bo'lgan davr, 1972-1987-yillar; III hisob davri, irrigatsion rejim ustuvor, energetik rejimga o'ta boshlangan davr, 1988-1994-yillar; IV hisob davri, energetik rejim ustuvor bo'lgan davr, 1995-2007-yillar; V hisob davri, energetik rejim chuqurlashgan davr, 2008-2021-yillar.

Tadqiqot jarayonida To'xtag'ul suv omborining Norin daryosi oqimining yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishiga ta'sirini baholash maqsadida ajratilgan har bir hisob davri uchun o'rtacha ko'p yillik oylik oqim miqdorlari va ularning yillik oqimga qo'shgan hissalarini absolyut va nisbiy qiymatlarda aniqlangan (2-rasm).

Norin daryosi oqimining I hisob davrida yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishi uning tabiiy gidrologik rejimini o'zida aks ettiradi. II hisob davrida suv ombori asosan irrigatsion rejimda ekspluatatsiya qilingan, shu tufayli daryo oqimining katta miqdori may-avgust oylarida oqib o'tgan. Qish oylarida oqim miqdori orta boshlagan III hisob davrida To'xtag'ul suv ombori energetik rejimga o'ta boshlagan. IV hisob davri Norin daryosi tabiiy gidrologik rejimining aksini ko'rsatadi. Mazkur davrda daryo oqimining yillik oqim miqdoriga nisbatan

katta qismi (52 %) noyabr-mart oylarida oqib oʻtgan. V hisob davriga kelib, iyun oyi oqim miqdorining tabiiy gidrologik rejimga nisbatan 4-marta kamayib ketganligi, aksincha, yanvar oyi oqimi hajmining 4-marta ortib ketganligi aniqlangan (2-rasm).




2-rasm. Norin daryosi oqimining turli hisob davrlarida yil davomida oylar boʻyicha taqsimlanishi

Norin daryosi oqimining I hisob davrida yil davomida oylar boʻyicha taqsimlanishi uning tabiiy gidrologik rejimini oʻzida aks ettiradi. II hisob davrida suv ombori asosan irrigatsion rejimda ekspluatatsiya qilingan, shu tufayli daryo oqimining katta miqdori may-avgust oylarida oqib oʻtgan. Qish oylarida oqim miqdori orta boshlagan III hisob davrida Toʻxtagʻul suv ombori energetik rejimga oʻta boshlagan. IV hisob davri Norin daryosi tabiiy gidrologik rejimining aksini koʻrsatadi. Mazkur davrda daryo oqimining yillik oqim miqdoriga nisbatan katta qismi (52 %) noyabr-mart oylarida oqib oʻtgan. V hisob davriga kelib, iyun oyi oqim miqdorining tabiiy gidrologik rejimga nisbatan 4-marta kamayib ketganligi, aksincha, yanvar oyi oqimi hajmining 4-marta ortib ketganligi aniqlangan (2-rasm).

Tabiiy gidrologik rejimda Norin daryosi yillik oqimining asosiy qismi (50,2 %) yoz oylarida oqib oʻtgan. Toʻxtagʻul suv ombori energetik rejimga oʻta boshlash davrida Norin daryosi oqimining yil fasllaridagi miqdorlari oʻzaro yaqinlashgan. Jumladan, yoz ($4,33 \text{ km}^3$) va qish ($3,43 \text{ km}^3$) fasllaridagi oqim miqdorlarining farqi $0,9 \text{ km}^3$ ni tashkil etgan (5-rasm). IV hisob davrida esa qish faslidagi oqim hajmi tabiiy gidrologik rejimdagi oqim hajmiga nisbatan qariyb 4-marta ortib, yillik oqimning 36,2 % ini tashkil qilgan. V hisob davrida yoz oylaridagi oqim miqdori yanada kamayib, aksincha, qish faslidagi oqim miqdori ortgan (2-rasm).

